

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-5/4  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2024**

<b>Israil M.</b> Qayta qurish davridagi o'zbek gazeta matnlarining lisoniy-uslubiy jihatlari: sotsiolingvistik yondashuv	127
<b>Jabborova Z.M.</b> Jahon va o'zbek tilshunosligida publisistik uslub va uning turlari	130
<b>Jalilova M.Z.</b> To'y-marosim nomlarini bildiruvchi ayrim etnografizmlar xususida	134
<b>Jo'rayeva N.Sh.</b> Evfemizm, yohud yumshoq muomala fransuz ayollarini talqinida	137
<b>Jumanazarova N.</b> Xiva toponimining kelib chiqishi	139
<b>Karshieva Sh.Sh.</b> Criteria for formation of innovative speech units in english and uzbek languages	142
<b>Kiryigitova N.</b> Amir Temur obrazining badiiy ijodda yoritilishi	144
<b>Komilova G.T.</b> Linguoculturological analysis of gender characteristics in uzbek artistic speech	146
<b>Kurbanova I.Sh.</b> Ingliz va o'zbek tillarida morfologik usulda yasalgan temir yo'l terminlari	149
<b>Kuryozova D., Yodgorova N.</b> Shermuhammad Munis tarjimasidagi "Ravzatu-s-safo" asarida qo'llanilgan ayrim eroniylar leksik birliklar tahlili	152
<b>Liu Likun</b> Classification and characteristics of modern chinese color words	155
<b>Madaminova D.B.</b> Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida maqollardan foydalanish mahorati	159
<b>Madieva M.Yu.</b> Cultural features of brand names	162
<b>Masharipov M.M.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida semantik okkazionalizmlarning nutqiy voqelanishi	165
<b>Mavlonov A. L.</b> Vilderning "Preriyadagi kichkina uy" asarida tarixiy janr xususiyatlarining davr va insonlar, ko'chmanchi oila munosabatlari tasviri orqali ifodasi	169
<b>Maxamatova F.</b> Abdulla Qahhor uslubidagi ayrim o'ziga xosliklar haqida mulohazalar	171
<b>Maxmitova D.S.</b> Alisher Navoiy asarlarida insoniy fazilatlar haqida	174
<b>Maxmudov R., Matkarimova G.</b> Ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim fitonimik frazeologizmlarning qiyosiy tahlili	177
<b>Maxmudov R., Yusupova S.</b> Dunyo xalqlaridagi allalarning lingvokulturologik xususiyatlari	181
<b>Meylieva G.M.</b> Teaching terminology in language for specific purposes	184
<b>Muhammadiyeva N.X.</b> O'zbek tilshunosligida terminologik tizim tahlilining asosiy tamoyil va yo'nalishlari	186
<b>Muhammadiyeva Sh.A.</b> Ayol va erkak obrazlarining shakllanishida ingliz va o'zbek til madaniyatidagi ekstralengvistik faktorlar	189
<b>Murodova A.X.</b> O'zbek va turk tillarida "boylik" konseptini ifodalagan frazeologik iboralar	191
<b>Mustafayeva M.B.</b> Ingliz tilidagi modal so'zlarning semantik xususiyatlari	196
<b>Muxiddinova S.A.</b> Til va madaniyatning hozirgi zamon tilshunosligidagi talqini	198
<b>Nazarova D.B.</b> O'zbek tili ish yuritish uslubining tasniflanishi	202
<b>Nazarova Z.K.</b> The study of english somatic phraseology with uzbek language	204
<b>Nuraliyev G'Q.</b> Taqlid so'zga yuklangan ma'no	207
<b>Odinayeva N.L., Norqulova M.</b> The depiction of female main characters in the novel "gone with the wind" by margaret mitchell	209
<b>Otajonova D.B.</b> Shaxs omiliga yo'naltirilgan antroposentrik tahlil	212
<b>Qalandarov Sh.</b> Boshlang'ich sinf darsliklaridagi ertak namunalarining lingvopoetik tahlili	215
<b>Qalandarov Sh.</b> Ertak janr xususiyatlari	218
<b>Qarshiyeva Sh.Sh.</b> Ingliz va o'zbek tillarida innovatsion iqtisodiy nutqiy birliklarning struktur tahlili	221
<b>Qodirjonova I.B.</b> O'zbek adabiyotida yetim obrazi va yetimlik motivining vujudga kelishi va ularning tadriji	223
<b>Qodirova M.S.</b> Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida qo'llangan parantez birliklar tahlili	228
<b>Qosimova X.O.</b> Turli tizimdagi tillarda kirish bo'laklar va ularni ifodalovchi sintaktik vositalar	231
<b>Rabieva M.G.</b> Speech norm and dysphemia	234
<b>Radjabkulov O.R.</b> Evfemizmlar va ularning shakllanish turlari	236
<b>Ruzimatova G.Sh.</b> O'zbek bolalar she'riyatida ruhiyat tasvirining badiiy talqini	240
<b>Ruzmatova N.N., Jurayeva I.A.</b> Adequacy and equivalency issues in translation	243
<b>Safarova Sh.A.</b> "Hayrat ul-abror" dostonida "me'roj" tasviri	246
<b>Safarova Z.T., Narzulloyeva M.N.</b> Charlz Dikkensning "Oliver Twist" romanida bolalarga nisbatan adolatsizlikning tasviri	248
<b>Saparova Sh.R.</b> Bolalar adabiyotini o'qitishda Sadriddin Ayniy hayoti va ijodiga murojaat	250
<b>Sapayeva V., Maxmudov R.</b> Qadimgi yunon-rim tillaridan o'zlashgan ayrim arxitektura-qurilish atamalarining etimologik tadqiqi	252
<b>Saydalieva A.E.</b> Irony and literary theory	255

bravery finally completes the pursuit of the value of death in literary creation and finally surpasses death. Some researchers comparatively analyze Scarlett with other tragic female characters, for example, Emily (from A Rose for Emily), Wang Jiazhi (from Lust, Caution) and so on. Hardness in life is the examination on people's adaptability to life and it is also the gauge distinguishing the strong and the weak. The weak try hard to avoid pain and conflict. They would rather go without than have a hard time in bettering themselves. The protagonist Scarlett in "Gone with the Wind" made an unforgettable impression in the world literature. She is an influential representative of her period, portrayal of American spirit and its culture: the spirit of freedom, strong character and realistic attitude, the spirit of struggle and courage to face reality and to the pursuit of love is its enduring. Although, modern woman should become a powerful life on the road in many cases risk-taker also; let yourselves and everything around it better, more beautiful and more meaningful. Scarlett is one of the most impressive images in the world literature.

**Conclusion.** Her charm lies in her personality of independence, her spirit of freedom, her firm characteristic and real life attitude as well as the persistent pursuit of love. Her charm lies in her image of being the representative of some modern spirit and being close to readers in their mentality and the feminine value which it reflects.

**REFERENCES:**

1. <https://www.bookshelf.com/book-review-gone-with-the-wind-by-margaret-mitchell/>
2. <https://www.scirp.org/journal/PaperInformation.aspx?PaperID=92125/>
3. <https://christianpundit.wordpress.com/2017/02/16/the-ugly-unfair-truth-about-looking-beautiful-by-w-leith>
4. <https://www.scirp.org/journal/paperinformation.aspx?paperid=92125>
5. [https://www.researchgate.net/publication/332675061\\_Analysis\\_of\\_the\\_Character\\_of\\_Scarlett\\_in\\_Gone\\_with\\_the\\_Wind](https://www.researchgate.net/publication/332675061_Analysis_of_the_Character_of_Scarlett_in_Gone_with_the_Wind)

**UDK 8'1751'8111'81'32**

**SHAXS OMILIGA YO'NALТИРILGAN ANTROPOSENTRIK TAHLIL**  
**D.B.Otajonova, dots. v/b., PhD, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson nutqiy faoliyatiga xos jihatlarning nutqda namoyon bo'lishi va tarjima matnlarida ham ifodalanish holatlari tahlilga tortilgan bo'lib, til shaxsining asosiy tasniflari, uning tuzilishi, bir-biri bilan chambarchas bog'liq darajalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** antroposentrik omillar, inson nutqiy faoliyati, psixologik xarakter.

**Аннотация.** В данной статье анализируются случаи проявления аспектов, свойственных речевой деятельности человека, в речи и экспрессии в переводных текстах, анализируются основные классификации языковой личности, ее структура и тесно связанные с ней уровни.

**Ключевые слова:** антропоцентрические факторы, речевая деятельность человека, психологический характер

**Abstract.** In this article, the cases of manifestation of aspects specific to human speech activity in speech and expression in translated texts analyzed. The main classifications of the language person, its structure, closely related to each other dependent levels are classified.

**Key words:** anthropocentric factors, human speech activity, psychological character

**Kirish.** Barcha sohalar kesimida hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlardan olingan ilmiy natijalar shundan dalolat beradiki, insonning turli hayotiy faoliyatiga hamohang ravishda manfaatlariga muvofiq holda uning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa shu kabi ehtiyojlarini to'laqonli amalda joriy etish maqsadi eng oliv vazifa sifatida nafaqat demokratik jamiyatning asosiy mezonlari, balki, zamonaviy tilshunoslikning ham obyektiga aylanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Zamonaviy tilshunoslikda tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabi jihatlar bilan bog'liq holda o'rghanishga, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan uzviy tarzda o'rghanishga asoslangan va o'ziga xos tahlil usullariga ega

antroposentrik tilshunoslikning turli yo'nalishlari ajralib chiqdi. Darhaqiqat, yaratilgan barcha innovatsion texnologiyalar va qulayliklar zamirida insoniyat faoliyatini tubdan modernizatsiyalash va yengillashtirish maqsadi mavjuddir. Garchi, ilmiy innovatsion kashfiyotlar uning o'zi tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, faqat va faqat unga xizmat qilishga yo'naltirilgan.

Boshqa sohalar singari lingvistik tadqiqotlarning ham maqsadi insoniyat ona tilining shakllanish va rivojlanish jarayonlari hamda o'zbek tilini yanada takomillashtirish, shuningdek, davlat ta'lif standartlariga muvofiqlashtirish asnosida xorijiy tillar bilan qiyoslab, chog'ishtirib o'rganishdan iborat bo'lib, ushbu say'i-harakatlarning bari insoniyat uchun xizmat qilishga qaratilgandir.

Lingvistika tarixiy silsilasi shunga guvohlik beradiki, inson omilini tadqiqot markazi sifatida o'rganish soha obyektlaridan biri hisoblanmish, antroposentrizm, ya'ni yunoncha «antropos» - «inson» so'zidan olingan, lotincha «sentrum» - «markaz» ma'nolarini anglatib, to'g'riroq'i soha markazida inson omilining maqsad sifatida ko'riliши, unga oid yoki bog'liq bo'lgan tushunchalar hamda frazeologik birliklarni saralab, tadqiq etish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda hukmron bo'lgan antropotsentrik tadqiqot paradigmasi shaxsni barcha lingvistik gipotezalarda "gapiruvchi odam", "nutq shaxsi", "diskurs shaxsi", "madaniy shaxs", "lingvistik shaxs", ya'ni tilda ifodalangan shaxs sifatida tasvirlagan. Hozirgi vaqtida "lingvistik shaxs" tushunchasi antropololingvistikkaning kategorik apparatida asosiy predmeti hisoblanadi. U doimo til va uning tashuvchisi o'rtasidagi munosabatlarning tabiatini haqidagi yangi kuzatishlar bilan to'diriladi. Antroposentrik ilmiy tadqiqotlarda inson va unga tegishli bo'lgan barcha omillar, jumladan, jamiyat, tabiat, madaniyat, idrok hamda boshqalar bir-biri bilan tizimlashtirilgan holda ko'rib chiqiladi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, inson nutqiy faoliyatini turli fan jabhalarining tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmoqda. Shunga qaramay, inson faoliyatining barcha xilma-xilligi va mohiyatini, ularning bilish mexanizmlarini nutqiy faoliyatning asosiy vositasi bo'lgan tilsiz tushunish mumkin emas. Shuning uchun ham «til inson ruhlarining asosiy faoliyatidir, u boshqa barcha turdag'i inson faoliyatining asosidir».

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, antroposentrik aspekt tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy holati, ruhiyati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganib, tilshunoslikda antroposentrik aspektning shakllanishi shaxs omili – so'zlovchining nutqiy faoliyati tadqiqini taqozo etdi. Ta'kidlash kerakki, inson tafakkuri va ongi bilan bog'liq bo'lgan eng qadimiy tushunchalardan biri tildir. U hozirgi kunga qadar turli xil qarashlarga ega bir qator tilshunoslik sohalari nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. Shuningdek, nutq til, ong hamda fikrlash kabi tushunchalar bilan qiyoslanib, tadqiq etib kelinmoqda.

Antroposentrizmga bag'ishlangan tadqiqotlar V. Fon Gumbolt, A.A.Shahmatov va boshqalar asarlarida uchratish mumkin. Antropotsentrik metodining dolzarbligi Gumbolting lingvofilosofik konsepsiyasida belgilangan bo'lib, uning fikriga ko'ra, "G'oya to'plashdan iborat lingvistik materiallarning butun massasini, tilni sabab sifatida tushunish uchun barcha analogiya qonunlari bo'yicha taqqoslash, odamlarning ichki dunyosi haqida xulosa chiqarish" [8] ni ilgari surgan. Inson ongida yashirin nutq, ya'ni ifodalangan fikr ham mavjud bo'lib, fikr bilan ongning yashirin munosabati nutqiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Antroposentrik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadi, inson nutqiy faoliyatining o'ziga xos tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular:

1. Ijtimoiy ma'lumot: a) shaxsning yoshi; b) ijtimoiy mavqeい; v) jinsi; g) ta'lif va tarbiyasi; d) kasbi [2; 4].

2. Nutqiy axloqning o'ziga xosligi [6; 7].

3. Nutqiy munosabatning prinsiplari: a) *sifat* – *ma'lumot yolg'on yoki kerakli asoslarsiz bo'lmasligi shart*; b) *hajm* – *ma'lumot juda qisqa va juda uzun bo'lmasligi kerak*; v) *munosabat* – *ma'lumot yo'llanilayotgan shaxsga mos bo'lishi kerak*; g) *usul* – *ma'lumot tushunarli, aniq va adresatga tushunarsiz bo'lган so'zlardan xoli bo'lishi kerak*; d) *xushmuomalalik: rasmiy, neytral', norasmiy* [2; 7].

4. Psixologik xarakter [2].

Yuqorida sanab o'tilgan alomatlar badiiy matnda ochib beriladi. Biroq shuni hisobga olish kerakki, barcha nutq etiketi formulalari ham matn yoki dialogda ifodalangan kabi ma'lumotlarga ega

bo'lavermaydi. Bunga ishonch hosil qilish uchun ingliz badiiy matnlari va ularning ruscha hamda o'zbekcha tarjimalarida nutq etiketining o'ziga xos va o'xhash bo'lgan jihatlarini ko'rib chiqamiz. Ma'lumot tariqasida Jek Londonning "Martin Iden" asari va uning rus hamda o'zbek tilidagi tarjima matnlarida aks ettirilgan nutq etiketi vositalari xizmat qilishi mumkin. Ular, jumladan, asar qahramonlaridan biri – Martin Iden va uning boshqa bir qahramon – Arturga yo'llagan nutqida aniq qilib tasvirlangan:

– «*Hold on, Arthur, my boy*», he said, attempting to mask his anxiety with facetious utterance. «This is too much all at once for yours truly. Give me a chance to get my nerve. You know I didn't want to come, an' I guess your fam'ly ain't hankerin' to see me neither» [9].

– «Артур, дружище, погодите немножко, – сказал он, пытаясь шутливым тоном замаскировать свое смущение. – Слишком уж для меня много на первый раз. Дайте собраться с духом. Вы ведь знаете, что я не хотел идти, да и вашим-то едва ли так уж не терпится посмотреть на меня» [3].

– «*Artur, azizim, birpas sabr qilsangiz, – dedi u o'zining xijolat bo'lganini yashirish uchun hazilomuz ohangda. – Dabdurstdan bunchalik dabdaba men uchun judayam ortiqcha bo'lib ketdi. Nafasimni rostlab olay. O'zingiz bilardingiz, bu yerga kelishni istamovdim, undan keyin, oila a'zolaringizniyam meni ko'rishga ko'zlar uchib turgan bo'lmasa kerak*» [5].

Asliyat va uning ruscha hamda o'zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili nutq etiketining o'ziga xos misli ko'rilmagan qirralarini ochib berdi. Ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Xalq nutqi hamda murojaat etiket formulasini xarakterlovchi bir necha so'zdan iborat bo'lgan Martin Idenning nutqi alohida e'tiborga ega. Masalan, *Arthur* [1] atoqli ot tarjimasida transkripsiya usulidan foydalilanigan. Shuningdek, jargon so'z birikmasi *my boy* – murojaat nutq etiketi shakli ma'lumot yo'llovchi shaxsning a) yosh; b) pastki sinf vakili; v) erkak jinsiga mansub ekanligidan dalolat beradi. Garchand rus tilida egalik olmoshi mavjud bo'lsa-da, *my boy* so'z birikmasining muqobili bir semadan iborat bo'lgan дружище so'zi bilan ifodalangan. Rus tarjimon *my boy* so'zini integral transformasiya usuli orqali tarjima qilgan. Ta'kidlash joizki, asliyatda ifodalangan stilistik xususiyati rus tarjima matnida saqlab qolining.

**Muhokama.** Ingliz va rus tillaridan farqli o'laroq, o'zbek tilida egalik ma'nosini olmoshdan tashqari – im, – ing, – i qo'shimchalari orqali o'girish mumkin. Shu sababli o'zbek tilidagi tarjimada *my boy* jargon leksemasiga azizim so'zi ekvivalent qilib olingan. Biroq azizim odamlarning do'stona munosabatini ifodalaydigan ingliz tilidagi *my boy* jargon leksemasi semantikasini tasvirlay ololmaganligi tufayli unga muqobil bo'lolmaydi. Shu sababli inglizcha *my boy* jargonini o'zbek tiliga do'stim so'zini qo'llagan holda tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Tarjimon asliyat tilida nutq madaniyatining buzilishini inobatga olmagan holda, *my boy* jargonini tarjima tilida mohiyatini ochib berolmagan. Natijada asliyatda mujassamlashgan hissiy-ta'sirchanlik tarjimada asliga monand jaranglamagan. Ta'kidlash joizki, muallif va uning personajlari nutqiy saviyalarining aynan aks ettirilishigina kitobxonda asar tili haqida to'g'ri tasavvur hosil qiladi va uning g'oyaviy-badiiy qiymati to'g'risida chiqaradigan hukmini to'ldiradi.

Yuqorida berilgan matnda qo'llanilgan norasmiy *hold on* so'zi adresantning a) quiyi sinf vakili; b) o'qimishsiz ekanligi haqida ma'lumot beradi. Rus tilida tarjimaning konkretlashtirish usuli orqali unga *погодите* so'zi tanlangan. Asliyatda keltirilgan so'z mohiyatini saqlagan holda xuddi undagi kabi ma'lumotlarni rus tarjimasida ham anglatadi.

O'zbek tilidagi ekvivalent – rasmiy so'z birikmasi sabr qilsangiz ingliz tilidagi so'zga muqobil variant bo'lolmaydi. Ushbu iborani biroz to'xtab tursangiz qabilida tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbek tilida sabr qilsangiz va biroz to'xtab tursangiz so'z birikmalari modulyasiya usulidan foydalanim tarjima qilingan. Asliyatdagi «*Hold on, Arthur, my boy*» gapi rus va o'zbek tarjimalari so'zlar tartibini o'zgartirish ya'ni transpozisiya usuli orqali o'girilgan. Biroq ushbu gapni o'zbek tiliga «– Artur, do'stim, biroz to'xtab tursangiz» qabilida tarjima qilinsa, gap mazmuni ancha aniqroq ko'rinishga ega bo'lardi.

Jek London asar qahramoni Martin Iden nutqining o'ziga xos jihatini *an', fam'ly, ain't hankerin'* (аслида: *and, family, aren't hankering*) kabi so'zlarda ayrim harflarni tushirib qoldirish orqali tasvirlaydi. Bu orqali muallif uning o'qimishsiz ekanligi ko'rsatishga harakat qilgan. Biroq

keyinchalik oddiy matros bo'lib, o'z asarini yozish uchun qalam tebratgan Martin Iden bilimi, aql-zakovati va savodxonligini oshirish maqsadida ancha kuch sarflaydi. Mashaqqatli mehnati evaziga u o'z davrining o'qimishli kishilari qatoridan o'rin egallashga muvaffaq bo'ladi. Asarda qo'llanilgan qahramonga tegishli so'zlar *an*, *fam'ly* generalizatsiya, *ain't hankerin'* - modulyasiya usullari orqali rus tiliga *да и вашим-то, не терпится посмотреть* qabilida tarjima qilingan. Ingliz tilidagi *hankerin'* leksemasi kuchli ekspressiv ma'noni anglatganligi sababli rus tarjimoni ushbu stilistik bo'yoqdorlikni *мерпеть* so'zi orqali ifodalagan.

O'zbek tiliga *an*, *fam'ly* so'zлari konkretizasiya usulidan foydalanib, *undan keyin, oila a'zolaringiz, ain't hankerin'* - *ko'zлари ушиб турган бо'лмаса керак ко'ринишда таржиманинг метафорик трансформасия* usuli orqali o'girilgan. Ingliz tilidagi matnda og'zaki nutqga xos bo'lgan so'zlar qo'llanilgan bo'lib, rus tarjima matnida *an*, *fam'ly*, *ain't hankerin'* so'zlaridan faqat *fam'ly* so'zining ekvivalentini ifodalagan. Rus tarjimoni ushbu xatolarni to'g'ri anglagan holda *fam'ly* so'ziga muqobil variant sifatida *вашим-то* so'zini qo'llagan, o'zbek tarjimoni asliyatda talqin etilgan uslubiy ohangni inobatga olmasdan, ushbu ma'noni to'liq anglatmaydigan *oila* leksemasini ekvivalent qilib olgan. Bundan shuni anglash mumkinki, o'zbek tilidagi tarjimasi rus tili matni vositasida amalgalash oshirilgan. O'zbek tarjimoni inglizcha matndan xabardor bo'lganda edi, u xatoga yo'l qo'ymasdi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Martin Idenning keltirilgan nutqi u haqidagi barcha ma'lumotdan xabar beradi. Rus va o'zbek tilidagi tarjimalari ayrim so'zlarning noto'g'ri tarjima qilinganini hisobga olmaganda, inson omiliga xos vositalar mazmuni va vazifalari to'liq ifodalagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гиляревский Р.С., Старостин Б.А. Иностранные имена и названия в русском тексте. – М.: Высшая школа, 1985. – 303 с.
2. Гольдин В.Е. Речь и этикет. -Саратов:Изд.Сарат. Ун-та, 1978. – 132 б.
3. Джек Лондон. Мартин Иден: Роман/Е.Колошникова. – Т.:Узбекистан, 1983. – С. 3
4. Иброҳимов С.И. Ўзбек тилининг нутқ маданиятига оид масалалар// Нутқ маданиятига оид масалалар. – Т.: Фан, 1973. – Б.31
5. Жек Лондон. Мартин Иден/Жек Лондон. Таржимон: Қодир Мирмуҳамедов. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 3
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – М.:Академия, 2001. – С.47
7. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. – С.146
8. Humboldt, V. V. (1985). Language and Philosophy of Culture. Progress.
9. Jack London. Martin Eden. [<http://www.gutenberg.org.ebooks>]

UO'K 398.21

### BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARI DAGI ERTAK NAMUNALARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

*Sh.Qalandarov, dots., PhD, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darsliklaridagi ertaklarning lingvopoetik tahlili o'rganilib, bu hikoyalarning yosh o'quvchilarda lingvistik va she'riy hissiyotlarni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ertaklar erta ta'limning muhim elementi bo'lib, bolalarning kognitiv va hissiy rivojlanishiga yordam beradigan boy lingvistik va madaniy tarkibni ta'minlaydi. Tadqiqot ushbu ertaklarda qo'llanilgan lingvistik xususiyatlar, hikoya tuzilmalari va she'riy vositalarga e'tibor qaratib, ularning boshlang'ich ta'limga ta'sirini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** Ertaklar, Boshlang'ich ta'lim, Lingvopoetik tahlil, Til rivojlanishi, Kognitiv o'sish, Emotsional intellekt, Axloqiy tarbiya, Madaniy ong.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается лингвопоэтический анализ сказок в учебниках начальной школы, а также подчеркивается значение этих рассказов в развитии языково-поэтического чувства у младших школьников. Истории являются важным элементом раннего обучения, предоставляя богатый языковой и культурный контент, который поддерживает когнитивное и эмоциональное развитие детей. В исследовании основное внимание уделяется языковым особенностям, повествовательным структурам и